

## EHTIYOJMAND OILALARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH, ULARNING BANDLIGINI TA'MINLASHDA IJTIMOIIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGINING O'RNI

*Suyumova Marhaboxon*

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada aholining ehtiyojmand qatlamlari, muhtoj oilalarni ijtimoiy himoya qilish, ularning bandligini ta'minlash, moddiy-ma'naviy ko'mak berish masalalari hamda bu yo'lda ijtimoiy himoya milliy agentligining o'rni va vazifalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, milliy agentlik, sug'urta mexanizmlari, xavf guruhidagi oilalar, zo'ravonlik, statistik tahlil, ehtiyojmand oila, ijtimoiy xodim, key-menejment.

Mamlakatimizda ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy himoya qilish, ularning bandligini ta'minlash, moddiy-ma'naviy ko'mak berish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilganligi ham buning yaqqol dalilidir. U fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish maqsadida yaratilgan.

Yurtboshimizning 2023-yil 1-iyundagi Farmonida yangilangan Konstitutsiyada belgilab berilgan ijtimoiy davlat tamoyillari qayd etilgan, shuningdek, "fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish" haqida so'z brogan edi.

Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. U o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 30-may kuni O'zLiDeP partiya s'ezdida saylovoldi dasturini taqdim etar ekan, shunday dedi: "Ijtimoiy himoya faqat pul berish bilan cheklanib qolmoqda. Aslida, bu tizimning vazifasi aholini og'ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o'z o'rnini egallashi uchun ko'mak berishdan iborat bo'lishi kerak".

"Misol uchun, bizda og'ir vaziyatga tushgan 30 ta toifadagi 9 mln aholi bor. Bular — nogironligi bor shaxslar, yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotganlar, oilada zo'ravonlikka uchragan ayollar", — degan edi u.

Ijtimoiy sohani isloh qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida hozirda 6 ta vazirlikka tarqoq bo'lgan barcha ijtimoiy xizmatlar birlashtiriladi. Xususan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etiladi, degan edi Shavkat Mirziyoyev.

Farmonda davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish;
- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash;
- ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- aholining ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish;
- xavf guruhlariga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali ularning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish;
- nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish.

Mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish maqsadida 2023-yil 1-iyuldan boshlab tuman (shaharlar)dagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy soha xodimlari guruhlarini tashkil etildi. Ularning asosiy vazifalari:

- har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlash;
- oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ularning ijtimoiy pasportlarini shakllantirish;
- ehtiyojmand aholi bilan, shu jumladan, keys-menejment usulini qo'llagan holda samarali ish tashkil qilish, ulardan ijtimoiy xizmatlar va yordam olish bo'yicha buyurtmalar qabul qilish, zaruratga qarab buyurtmalarni mas'ul vazirlik va idoralarga yuborish;
- og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilib borish, ular uchun ijtimoiy xizmat va yordamlarni tashkil etish.

O'z vazifalarini amalga oshirish uchun agentlikka quyidagi huquqlar beriladi:

-aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha dasturlar talablarini bajarmagani uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan chora-tadbirlarni qo'llash bo'yicha vakolatli davlat organlariga taqdimnomalar kiritish;

-o'z vakolatlari doirasida umummajburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;

-o'z vakolati doirasida ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan holatlar yuzasidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzish;

-o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari va

tashkilotlarining ma'lumotlar bazasidan real vaqt rejimida foydalanish;  
-davlat organlari va tashkilotlaridan zarur statistik, tahliliy hamda boshqa ma'lumotlarni so'rash va olish;  
-ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida imtiyozli tarzda o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash;  
-o'z vakolatlari doirasida maslahat-kengash organlari va ekspert komissiyalarini tashkil etish;  
-o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun davlat organlari va tashkilotlarining mutaxassislarini jalb etish;  
-ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlar, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar bilan hamkorlik yuzasidan va boshqa shartnomalarni tuzish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy himoya milliy agentligi bugungi kunda har bir ehtiyojmand aholi qatlamlari uchun tirgak bo'la oladigan tashkilotga aylanib ulgurdi. Inson manfaatlari va uning farovon hayot kechirishi uchun harakatdan to'xtamaydi hamda ijtimoiy himoyaga oid barcha huquqlarini himoya qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni
2. Gazeta.uz
3. Lex.uz